

TEXNOLOGIK TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

Tilabova Dildora Muxiddin qizi

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta’lim yo’nalishi talabasi,
Jizzax shahri, O’zbekiston
e-mail: dildoratilaboval@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologik ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish, zamonaviy metodlar asosida o’quvchilarni kasbiy tayyorlash samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM yondashuvi, loyiha asosida o’qitish, klaster, akseleratsiya, gamifikatsiya kabi metodlarning afzalliklari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Innovatsion metodlar, integrative metodlar, texnologik ta’lim, STEAM, AKT, CLIL, PBL, loyiha asosida o’qitish, zamonaviy yondashuvlar, axborot texnologiyalari, kasbiy ko’nikma, kreativlik.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности профессиональной подготовки учащихся путем внедрения инновационных подходов и современных методов в технологическое образование. Особое внимание уделяется использованию информационно-коммуникационных технологий, подхода STEAM, проектного обучения, кластерной методики, акселерации и геймификации в учебном процессе.

Ключевые слова: Инновационные методы, интерактивная методология, технологическое образование, STEAM, ИКТ, CLIL, PBL, проектное обучение, современные подходы, информационные технологии, профессиональные навыки, креативность.

Annotation: This article explores the use of innovative approaches in the process of technological education and the enhancement of students' professional training efficiency based on modern methods. The advantages of using information and communication technologies, the STEAM approach, project-based learning, cluster methods, acceleration techniques, and gamification in education are analyzed scientifically.

Keywords: Innovative methods, integrative methods, technological education, STEAM, ICT, CLIL, PBL, project-based learning, modern approaches, information technologies, professional skills, creativity.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar pedagogik va axborot texnologiyalari o’quv jarayonida qo’llashga

bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bu jarayonga kelishning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallahsga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zлari qidirib topishlariga, mustaqil izlanib, o‘rganib, taxlil qilishlariga, xatto o‘z fikrlarini ham o‘zлari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

Zamonaviy texnologik ta’lim jamiyat rivojining asosiy poydevorlaridan biridir. XXI asrda ta’lim sohasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar o‘qitish jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Texnologik ta’lim sohasi bu borada eng faol islohotlarga muhtoj bo‘lgan yo‘nalishlardan biri sanaladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlar bu sohada ta’lim samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarining mustaqil fikrlashi, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Texnologik ta’lim sohasi jadal sur’atlar bilan rivojlanib, unda zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Kasbiy ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ta’limga yangi texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shunday metodlar va yondashuvlar ta’limdagi roli nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Texnologik ta’limda innovatsion yondashuvlar zamonaviy o‘quv jarayonining ajralmas bo‘lagiga aylanmoqda. Avvalo, **AKT** (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) yordamida interaktiv ta’lim muhitini yaratish, o‘quvchilarining mustaqil bilim olishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Onlayn platformalar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriylar orqali texnologik darslarni interaktiv tashkil qilish imkoniyati oshdi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o‘quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari - interaktiv metodlar, Innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ro‘li benihoyat kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va intraktiv metodlar o‘quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innavation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan

to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Innovatsion metodlar samaradorligini oshirish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, multimedya vositalarini joriy etish, virtual laboratoriyalarni qo‘llash, interaktiv platformalardan foydalanish kabi usullar ham muhim hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar ichida keng qo‘llanilayotgan metodlardan biri bu — STEAM yondashuvidir.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi esa texnologik ta’limda fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlab, o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, ijodkorlik, loyihalashtirish, guruhda ishlash va amaliyotga yo‘naltirilgan bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, kasbga yo‘naltirilgan loyihiilar doirasida o‘quvchilar amaliyot bilan nazariyani uyg‘unlashtirib, real hayotdagi muammolarga yechim izlaydi. Yana bir muhim innovatsion metod — bu **CLIL** (Content and Language Integrated Learning), ya’ni mazmun va til integratsiyalashgan o‘qitish. Bu uslub texnologik fanlarni xorijiy tilda o‘rgatish orqali nafaqat kasbiy bilim, balki til ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Bu yondashuv ko‘proq kasb-hunar ta’limi va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash tizimida qo‘llaniladi. Shuningdek, **PBL** (Project-Based Learning) — loyiha asoslangan ta’lim usuli ham texnologik ta’limda katta ahamiyatga ega. Bu metod orqali o‘quvchilar real hayotdagi muammolar asosida loyihiilar ishlab chiqishadi, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda mustaqillik, mas’uliyat, ijodiy yondashuv kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Gamifikatsiya (o‘yin texnologiyalari) orqali o‘quvchilarda fanlarga qiziqish ortib, motivatsiya kuchayadi. Klaster metodi esa ta’lim ishtiroychilarining guruqli ishlash, bilimlarni tizimli o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Akseleratsiya esa o‘quv dasturlarini jadallashtirish orqali bilimlar chuqurroq va qisqa muddatda o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda texnologik ta’limga innovatsion yondashuvlar faol tatbiq etilmoqda. STEAM laboratoriyalari, robototexnika to‘garaklari, kasbiy maktablar va texnoparklar buning yaqqol

misolidir. Bu borada oliv ta’lim muassasalarining zamonaviy texnika va dasturlar bilan jihozlanayotgani ham muhim omil sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, texnologik ta’limda innovatsion metod va yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarining bilim darajasini oshirish, ularda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. STEAM, AKT, loyiha asosida o‘qitish, gamifikatsiya kabi zamonaviy usullar ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi. Kelajakda bu kabi yondashuvlarni yanada keng joriy etish va ularni metodik jihatdan mukammallashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, kelajakda texnologik ta’lim tizimini yanada takomillashtirish uchun innovatsion metodlarni tizimli joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni real muammolar yechimiga jalb qilish, kelajak kasblariga tayyorlashda ushbu yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Pedagoglarning yangicha metodik kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritishga tayyorlash zarur. SHuningdek, ta’lim mazmunini boyitish, fanlararo aloqalarini mustahkamlash orqali texnologik ta’lim yanada samarali bo‘lishi mumkin. Ushbu metodlar yordamida innovatsion fikrlaydigan, ijodiy yondashadigan va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

- 1.Axmedova M. Texnologik ta’limda innovatsiyalar. Toshkent. Fan, 2021.
- 2.G‘ulomov J. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Samarqand. 2022.
- 3.Rasulov B., Xamidov U. Zamonaviy dars metodlari. Jizzax. 2020.
- 4.Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent. 2020.
- 5.Ruzmetov N. Innovatsion ta’lim metodlari. Samarqand. 2021.

Internet manbalari:

- 6.UNESCO. “ICT in Education” – 2019
- 7.www.steam.org,
- 8.www.edu.uz.